

Published Date:- 17-10-2023

XORIJIY TAJRIBADA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASI

Baybabayeva Shoiraxon

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

shoiraxon.0188@gmail.com

Annotatsiya

Nostandart “flipped classroom” texnologiyasi zamonaviy raqamli texnologiyalardan oliy ta’limda unumli foydalanish imkoniyatlarini beradi va uning konseptini yaratishda xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Turkiya, Germaniya, Xitoy kabi ko‘plab mamlakat olimlari izlanishlar oib borganlar. Quyida bir necha olimlarning nazariy va amaliy tajribalari natijalarini muxokama qilamiz.

Kalit so‘zlar: Nostandart “flipped classroom” texnologiyasi, ta’lim jarayoni, an’anaviy ta’lim, nostandart ta’lim, raqamli texnologiya, onlayn ta’lim platforma

Аннотация

Нестандартная технология «перевернутого класса» предоставляет возможности для эффективного использования современных цифровых технологии в вузах высшем образованием, исследования ее концепции провели ученые многих зарубежных стран, в том числе США, Великобритании, Турции, Германии и Китая. Ниже мы обсудим результаты теоретических и практических экспериментов ряд ученых.

Ключевые слова: Нестандартная технология «перевернутого класса», образовательный процесс, традиционное образование, нестандартное образование, цифровые технологии, образовательная онлайн-платформа.

Annototion

Published Date:- 17-10-2023

The non-standard "flipped classroom" technology provides opportunities for effective use of modern digital technologies in higher education, and scientists from many foreign countries, including the USA, Great Britain, Turkey, Germany, and China, have conducted research on its concept. Below we will discuss the results of theoretical and practical experiments of several scientists.

Key words: *Non-standard "flipped classroom" technology, educational process, traditional education, non-standard education, digital technology, online educational platform*

K. Bekker o‘z izlanishlarini 2014 yilda amalga oshirgan bo‘lib, uning “The effectiveness of the flipped classroom on student learning” ilmiy asarida an’anaviy dars jarayoni hamda “flipped classroom” texnologiyasi bir-biriga nazariy hamda amaliy jihatdan solishtirilgan. Uning fikriga ko‘ra ko‘ra an’anaviy dars jarayoni bu maktab, kollej va universitetlardagi o‘qitish jarayonidir, “flipped classroom” o‘quv jarayonida esa “o‘qitish” terminining aksi kuzatilinadi, ya’ni nazariy ma’lumotlarni leksiya orqali olish, ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun o‘qish va video darsliklarni ko‘rish jarayoni darsdan tashqari bajarilib, dars jarayonida turli mashqlar va sinf vazifalari (uy vazifalarining aksi sifatida) bajarish orqali anglash jarayoniga ijobiy ta’sir etishdan iborat. Shuning uchun ham ana’anaviy darslardagi vazifalarni bajarish jarayonini aksini “flipped classroom” ya’ni “teskari sinf”da kuzatamiz degan fikrni ilgari surdi.[1,5] Yana bir guruh olimlar, jumladan, J.Tyun, M.Sturek va D.Bazillar an’anaviy ma’ruza dars jarayonlarini “flipped classroom” texnologiyasi yordamida o‘tilgan darslarni samarasini solishtirib o‘tkazganlar. Ular o‘z tajribalarini ikki guruhda olib borganlar. Bir guruh talabalar an’anaviy ma’ruzalarda qatnashgan bo‘lsalar, ikkinchi guruh talabalar “flipped classroom” texnologiyasi orqali ta’lim berib borilgan. Ikkinchi guruh talabalari avvaldan tayyorlangan ma’ruzalarni ko‘rishlari talab etilgan. Dars jarayonida ulardan test topshiriqlarini bajarish hamda muammoli vaziyatlarga yechim topish kabi keyslar berilgan.

Published Date:- 17-10-2023

Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, “flipped classroom” texnologiyasi orqali o‘qitilgan talabalar kurs yakuniy nazoratida umumiy ko‘rsatkichlari birinchi guruh ya’ni ana’naviy darslarda qatnashgan talabalar ko‘rsatkisiga nisbatan baland bo‘lgan.[6]

S.Lemmar ham 2013 yili Makkinney xuquqshunoslik universitetida o‘z tajribalarini “flipped classroom” texnologiyasini samarasini isbotlash yuzasidan olib borib, ijobiy natijalarga ega bo‘lganligini ko‘ramiz. “Flipped classroom” texnologiyasi orqali talabalarni real hayotdagiday muhitni his qildirish maqsadida muammoli vaziyatlarni hal etish hamda mijozlar bilan ishlash kabi vazifalarni amalda dars jarayonida qo‘lladi. Barcha nazariy asoslar huquqshunoslik ta’limiga oid video yoki elektiron leksiyalar orqali esa dars jarayonidan tashqari vaqtda o‘zlashtirishga mo‘ljallangan edi. Lemmar tajribasidan kelib chiqib, shuni ta’kidlaydiki, “flipped classroom” texnologiyasi talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamladi va huquqiy jihatdan vaziyatlarga to‘g‘ri baho berish hamda to‘g‘ri yechimlarni topa olish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirganini isbotladi.[5, 461-491]

M.Kettl ham “flipped classroom” texnologiyasi yuzasidan izlanishlar olib borgan, o‘z tajribasini u kollej talabalariga fizika fanini o‘qitish bilan bog‘ladi. Hamda ushbu texnologiya haqida shunday fikrga keldi:” “flipped classroom” texnologiyasi qobiliyatli va motivatsiyali talabalarda samarasi sezilarlidir”. Chunki darsdan tashqari vaqtini to‘g‘ri taqsimlay olmaydigan talabalar yoki o‘zlashtirish darajasi past talabalar fiyinchiliklarga uchrashini aytib o‘tgan bo‘lsa-da, M.Kettl tajribasi yakunida “flipped classroom” texnologiyasida o‘qigan talabalar o‘zlashtirishi 33%, an’anaviy darslarda ishtirok etgan talabalar 11% oshganini ko‘rsatdi.[4, 686]

Yana bir guruh olimlar G.Meyson, T.Shumann va K.Kuk mashinasozlik kursini o‘qitishda nostandart “flipped learning” texnologiyasidan foydalanib, an’anaviy

Published Date:- 17-10-2023

sinfda o‘qitiladigan kurs bilan taqqosladilar.[3,58] Ushbu kurs 10 hafta davom etib, har haftada talabalar 4 marotaba Information Computer Technology kurs akademik darsida qatnashar edilar. Tadqiqotchilar har biri 5 daqiqadan 15 daqiqagacha bo‘lgan 45 ta videoni talabalar o‘rganishi uchun taklif qildilar va talabalarga kerak bo‘lganda ko‘rishlari uchun ularni YouTube video veb saytiga yukladilar. Talabalar akademik dars vaqtida individual yoki guruh bo‘lib muammolarni yechishga kabi vazifalarni bajarardilar. Agar nostandart “flipped learning” guruhi uchun barcha darslar kompyuter xonasida tashkillashtirilgan bo‘lsa, an’anaviy guruh uchun esa beshinchi akademik soatdagina kompyuter xonasida dars o‘tish imkoniga ega bo‘ldilar.[3,59] An’anaviy darslarda pedogog talabalarga muammolar yechimini o‘rgatgan bo‘lsa, nostandart “flipped learning” darslarda talabalar ushbu muammolarga yechim topishga harakat qilar edilar, pedogog esa talabalarni kuzatib, ular uchragan savollariga javob topish uchun yo‘nalishlar berib borgan. Talabalar ushbu savollarga o‘zlari javob topar edilar. Shunday qilib, nostandart “flipped learning” texnologiyasi pedogogga talaba aniqlay olmagan tushunchalarni aniqlab, talabalarga yo‘nalish berish imkonini bergan.[1,7]

Texas davlat universiteti jismoniy tayanch-harakat tizimi terapevtini tayyorlash dasturi kursi ham nostandart “Flipped learning” pedogogik texnologiyasidan foydalangan xolda ta’lim berildi. Ushbu eksperimental tajriba B.Boucher, E.Robertson, R.Uayner va S.Sanderslar tomonidan o‘tkazildi.[2,72-77] Video ma’ruzalar va mavzuga doir axborot resurslari, jumladan, veb-sayt linklari akademik dars jarayonidan avval o‘zlashtirilgan bo‘lishi zarur edi. Fakultet tomonidan avvaldan ishlab chiqilgan “Tayyorlov” varaqlari akademik darsda muloqot o‘rnatishga, hamda munozaralar tashkil etishga vosita bo‘lgan. “Tayyorlov” varaqlari o‘z ichiga adabiyotlar ro‘yxatini, zarur havolalarni, hamda ma’ruza mavzulariga doir to‘rtta yoki beshta savollardan iborat edi. Dars jarayonida mashg‘ulotlari savollarni ko‘rib chiqish va muhokama qilish, laboratoriya ishi, muammolarni hal qilish va klinik fikrlash, amaliy tadqiqotlar va dalillarga

Published Date:- 17-10-2023

asoslangan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish kabi vazifalar berilgan. Boucher o‘z izlanishlarida davomida talabalardan so‘rovnoma oldi va u talabalar video ma’ruzalar ko‘rishdagi diqqati uzog‘i 30 daqiqa davom etishini aniqladi. [2, 72-77]

Xulosa

Pedagog video ma’ruza yoki ma’lumot talabalar diqqatining davomiyligiga e’tibor bergan xolda o‘ttiz daqiqa atrofida tayyorlashlari zarur. Shu orqali talaba ma’lumotga ega bo‘lishi samaradorligi oshadi. Nostandart “flipped classroom” nafaqat darsdan avvalgi vazifalar ya’ni o‘quv video darsliklar va materiallardan tashkil topishga, balki uning imkoniyatlari keng bo‘lib, talabalar o‘rganilgan material asosida kichik guruhlarda muhokama qilish, yozma vazifalarni bajarish, ularni og‘zaki nutqqa aylantirib platformalarga yuklash, xamda o‘qituvchilardan qayta aloqa o‘rnatish imkoniyatlari mavjudligida edi. Dars jarayonlarida esa talabalar guruh muhokamalarida, simulyatsiya, turli xil interaktiv o‘yinlar asosida darsdan avval o‘rganilgan bilimlarni autentik xolatlarda qo‘llash, taxlil qilish, baxolash va yaratish uchun sharoitlar yaratiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Becker, C. (2014) The effectiveness of the flipped classroom on student learning. The Graduate Faculty University of Wisconsin-Platteville.
2. Boucher, B., Robertson, E., Wainner, R., & Sanders, B. (2013). "Flipping" Texas State University's physical therapist musculoskeletal curriculum: Implementation of a hybrid learning model. *Journal of Physical Therapy Education*, 27(3), 72-77.
3. Mason, G.S., Shuman, T.R., & Cook, K.E. (2013). Comparing the effectiveness of an inverted classroom to a traditional classroom in an upper-division engineering course. *IEEE Transactions on Education*, 56 (4), 430-435. doi: 10.1109/TE.2013.2249066.
4. Kettle, M. (2013). Flipped Physics. *Physics Education*, 4, 593. doi:10.1088/0031-9120/48/5/593 *Technology*, 85(6), 685-687.
5. Lemmer, C. (2013). A view from the flip side: Using the "Inverted Classroom" to enhance the legal information literacy of the international LL.M. student. *Law Library Journal*, 105(4), 461-491.

Published Date:- 17-10-2023

6. Tune, J.D., Sturek, M., & Basile, D.P. (2013) Flipped classroom model improves graduate student performance in cardiovascular, respiratory, and renal physiology. *Advances in Physiology Education Published*. DOI: 10.1152/advan.00091.2013.